XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 18 - yanvar VI-90-1-2-0-K/24 Buxoro viloyati hokimligi

Ijtimoiy soha obyektlarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash to‘g‘risida

Bugungi kunda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va sifatini kafolatlash, yuqumli kasalliklarning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik, mahsulotlarni qabul qilish hamda saqlashda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga qat’iy rioya qilish har qachongidanda dolzarb vazifa bo‘lib bormoqda.

Ayniqsa, ta’lim muassasalariga sanitariya normalariga to‘liq javob beradigan sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlillarga ko‘ra, viloyatdagi 1 912 ta *(485 ta davlat, 21 ta xususiy, 98 ta davlat xususiy sherikchilik, 1308 ta oilaviy)* maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 125 675 nafar 3-6 yoshli bolalar qamrab olingan.

Xususan, 485 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 79 ming nafardan ortiq tarbiyalanuvchilar 3 mahal ovqatlantiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi aksariyat korxonalar tomonidan sanitariya veterinariya talablariga javob bermaydigan, tegishli sifat sertifikatlari mavjud bo‘lmagan, ishlab chiqarish manzili noaniq bo‘lgan mahsulotlarni yetkazib berish hamda mahsulotlarni to‘liq yetkazib bermaslik, davlat xaridlari to‘g‘risidagi va boshqa qonunchilik talablarini buzish holatlari kundan kunga ko‘paygan. Bu esa 485 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 79 496 nafar bolalarning sog‘lig‘i va hayotiga xavf tug‘diradi.

Shuningdek, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3953-son qaroriga asosan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun tumanlar va shaharlar maktabgacha ta’lim bo‘limlari huzurida tuzilgan komissiyalar tomonidan har oyda oziq-ovqat mahsulotlari xaridlari tanlov asosida amalga oshirilishi belgilangan. Ammo Olot, Jondor, G‘ijduvon tuman bo‘limlarida 2023-yilning avgust-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari xaridi uchun shartnomalar tanlov o‘tkazilmasdan tuzilgan.

Shu bilan birga tumanlar va shahar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganishlarda 561 ta holatda kamomadlar va omborda saqlab qolingan ortiqcha mahsulotlar borligi aniqlangan.

Ushbu yo‘nalishda olib borilgan o‘rganishlar natijasida aniqlangan qonun buzilish holatlari yuzasidan 56 nafar shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortilib, 2 ta holatda jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4812-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi lozim bo‘lgan muvofiqlikni baholash obyektlari ro‘yxatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 43-son, 2019-yil 8-maydagi “Ixtisoslashtirilgan so‘yish korxonalari faoliyatini tartibga solish hamda iste’mol bozoriga go‘sht va go‘sht mahsulotlarini yetkazib berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 386-son qarorlari hamda viloyat prokurorining maktabgacha ta’lim tashkilotlarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash to‘g‘risidagi axborotini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILDI:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash to‘g‘risida viloyat prokurori M.Sh.Istamovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i F.Qurbonov hududlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish ratsioniga e’tiborsizligi hamda tizimdagi faoliyati qoniqarsiz deb topilsin.

3. Viloyat hokimligiga:

viloyat maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi uchun viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i F.Qurbonovni egallagan lavozimidan ozod etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga taqdimnoma kiritish;

viloyat maktabgacha ta’lim tizimida e’tiborsizligi va sustkashlikka yo‘l qo‘yganligi uchun viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari M.Xamrayevga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo‘llash;

hududlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganishlarda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan Olot, Jondor, G‘ijduvon, Shofirkon, Qorovulbozor tumanlari hokimliklarning mas’ullariga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda chora ko‘rish topshirilsin.

4. Viloyatda maktabgacha ta’lim tizimining sifat va samaradorligini oshirish hamda sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar holatini o‘rganish hamda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida ma’lumot kiritish bo‘yicha ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil fevral oyida o‘tkaziladigan sessiyasida viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari M.Xamrayev hisobotini eshitish belgilansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi lozim bo‘lgan muvofiqlikni baholash obyektlari ro‘yxatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 43-sonli, 2019-yil 8-maydagi “Ixtisoslashtirilgan so‘yish korxonalari faoliyatini tartibga solish hamda iste’mol bozoriga go‘sht va go‘sht mahsulotlarini yetkazib berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 386-son qarorlari ijrosini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi 3953-son qarori ilovasi bilan tasdiqlangan “Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)” ro‘yxati 27-bandida oziq-ovqat mahsulotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida yetkazib berish nazarda tutilganligi hamda viloyat prokurorining davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash yuzasidan tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish taklifi

inobatga olinsin.

6. Bunda viloyatdagi ijtimoiy soha obyektlari, xususan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, davolash-profilaktika muassasalari, muruvvat va nogironlik uylarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida quyidagi tartib o‘rnatilsin:

parranda va mol go‘shti, tuxum, un, sut va sut mahsulotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida xarid qilishda sanitariya va veterinariya xulosalari mavjud bo‘lgan mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar va fermer xo‘jaliklari bilan shartnomalar tuzilishi;

oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlovlarda viloyat maktabgacha va maktab ta’limi, iqtisodiyot va moliya, g‘aznachilik boshqarmalari hamda tumanlar va shaharlar hokimliklarining xodimlari kuzatuvchi maqomida ishtirok etishi ta’minlansin.

7. Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari M.Xamrayevga viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.Baxronov), Oshpazlar uyushmasi viloyat bo‘limi (S.Yodgorov) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish ishlarini yanada takomillashtirish;

hududlardagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida oziq-ovqat mahsulotlari yuzasidan aniqlangan kamchiliklar zudlik bartaraf etish hamda u yerdagi tarbiyalanuvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish;

uch kunlik muddat ichida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida oshpazlarni imtiyozli o‘qitish bo‘yicha takliflarni viloyat hokimligiga kiritish topshirilsin.

8. Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (F.Qurbonov), davlat xaridlarini amalga oshiruvchi boshqa viloyat tashkilotlari:

“Olib sotuvchi” tadbirkorlar tomonidan arzon lekin sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlar xarid qilinishi va mahsulotlarni to‘liq yetkazib bermaslik holatlarining oldini olish choralarini ko‘rsin;

ushbu qaror talablari buzilgan taqdirda davlat xaridlarini amalga oshirganlik uchun qonunchilikka muvofiq choralar ko‘rilishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

9. Viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi

(A.To‘xtayev) hamda viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish (N.Sobirov) boshqarmalari bugungi kunga qadar sanitariya hamda veterinariya xulosalarini olmagan ishlab chiqaruvchi korxonalarga tegishli tartibda xulosalar berilishida ko‘maklashsin.

10. Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Buxoro viloyat boshqarmasi (S.Achilov) hamda viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) viloyatdagi tovar aylanmasi katta bo‘lib, ishchi sonini hisobotlarda kam aks ettirgan hamda soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash ehtimoli yuqori bo‘lgan ishlab chiqaruvchi korxonalarni tahlil qilib, aniqlangan qonun buzilishi holatlari yuzasidan tegishli choralarni ko‘rsin.

11. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari o‘zlari saylangan okruglarda viloyatdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarda sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish hamda ta’limning sifat va samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning doimiy nazoratini olib borsin.

12. Viloyat teleradiokompaniyasi (O.Shabanov)ga mutasaddi tashkilotlar mas’ullari bilan birgalikda maktabgacha ta’lim tashkilotlarda sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishda qonunchilik talablarini buzish holatlarini muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

13. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning Buxoro.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

14. Ushbu qaror 2024-yil 1-fevraldan kuchga kirishi belgilansin.

15. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Pardayeva) hamda viloyat hokimining o‘rinbosari M.Xamrayev zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **B.K.Zaripov**

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2024-yil 18-yanvardagi
VI-90-1-2-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Viloyatda maktabgacha ta’lim tizimining sifat va samaradorligini oshirish hamda sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish borasida amalga oshirilgan ishlar holatini o‘rganish hamda viloyat Kengashi sessiyasida ma’lumot kiritish bo‘yicha ishchi guruhi

TARKIBI

1.	Pardayeva Marhabo Davlatovna	-	Xalq deputatlari viloyat Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi, ***ishchi guruhi rahbari***
2.	Safoyeva Shahodat Husenovna	-	17-Chorbakr saylov okrugidan deputat, Buxoro tumanidagi 3-son qishloq oilaviy poliklinikasi mudiri
3.	Homidov Maqsud Amonovich	-	23-Yangihayot saylov okrugidan deputat, “Adolat” Sotsial-demokratik partiyasi viloyat Kengashi raisi
4.	Ochilov Bobomurod Orifovich	-	46-Sarmijon saylov okrugidan deputat, O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasi viloyat bo‘limi apparat rahbari
5.	Sharopov Jamshid G‘ani o‘g‘li	-	viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati bosh mutaxassisi
6.	Lavozimiga ko‘ra	-	viloyat prokuraturasining bo‘lim boshlig‘i
7.	Adilov Baxtiyor Alisherovich	-	viloyat hokimligi iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig‘i
8.	Baxronov Askar Soliyevich	-	viloyat hokimligi sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i
9.	To‘xtayev Ashur Amonovich	-	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati viloyat boshqarmasi boshlig‘i
10.	Yodgorov Sobir	-	Oshpazlar uyushmasi viloyat bo‘limi rahbari
11.	Lavozimiga ko‘ra	-	Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarning ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalari a’zolari *(kelishuv asosida)*

Ishchi guruh vazifalari:

o‘rganish natijalari bo‘yicha tahliliy ma’lumot ***(fotolavhalar bilan birga)*****,** aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taklif va yo‘l xaritasini tayyorlash;

amalga oshirilgan yuzasidan **joriy yil 10-fevralga qadar** tegishli hujjatlarni xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyatiga taqdim etish.

Izoh: Ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o’tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funktsiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.